

1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 21 (67238)
2019-yil 27-may

Tong yulduzi


www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

SEN YURTIMNING ERTASI



Sen yurtimning ertasi,
Olov so'zim bo'lib yon.
Dil hayotim erkasi,
Quvnab yurgin, bolajon.

Bu dunyoning yulduzi,
Momiqqina qunduzi.
Yangi kunning kunduzi,
Quvnab yurgin, bolajon.

Bobong qo'li duoda,
Baxting yo'li duoda.
Yashar cho'ling duoda,
Quvnab yurgin, bolajon.

Sen bo'lasan Navoiy,
Bobolaring Buxorii.
Jaloliddin suvoriy,
Quvnab yurgin, bolajon.

Odam dunyoga mehmon,
Biyrongina javobxon.
«Spark»i bor kitobxon,
Quvnab yurgin, bolajon.

Kelajakda suyanchim,
Ishonchimsan, tayanchim.
Keksayganda yupanchim,
Quvnab yurgin, bolajon.


Osoyishta har tuning,
Quvonch-la o'tsin kuning.
Oltin bo'lsin ustuning,
Quvnab yurgin, bolajon.

Otabek ORTIQOV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
169-umumta'lif maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi

Mamlakatimizdagi barcha umumta'lif
muassasalarida 2018-2019-o'quv yili
yakunlandi, 1- va 11-sinf o'quvchilari ishtirokida
«So'nggi qo'ng'iroq» tadbirlari bo'lib o'tdi.

BOLALAR NUR DUNYOSI

Yurtimizda farzandlarimiz kamoloti uchun yaratilayotgan barcha sharoitlar, ular qarshisidagi imkoniyatlar uchun Prezidentimizdan behad minnatdorman. Bolalar dunyosida uzoq yillardan buyon faoliyat yuritayotgan inson sifatida bu e'tibor barchani birdek qovintiriyapti, xalqimizning ertangi kunga, kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlayapti, deb baralla ayta olaman.



Xudoyberdi TO'XTABOEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

MENDA BIR TAKIF BOR

Go'zal yurtimiz tabiatini, atrof-muhitni asrash har birimizning insoniy burchimiz sanaladi.

Lekin keyingi paytlarda ba'zi insonlarning tabiatga bo'lgan e'tiborsizligi, ekologiya qonun qoidalariga rioya etmasligi natijasida bir qancha jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda. Biz esa bunday hollarning oldini olishga harakat qilmog'imiz lozim.

Bizning qishloq tog' bag'iрида joylashgan. Bahor oyalarida tog' bag'rida hordiq chiqarish maqsadida kelganlarning soni ortadi. Achinarli jihat shundaki, dam oluvchilar ketishgach, bu yerlar chiqindixonaning o'zginasini bo'lib qoladi. Bunday manzarani ko'rigan odamning dili xufton bo'ladi. Yana bir o'ylantiridagi tomoni, ba'zi dam oluvchilar olov yoqish uchun endi kurtak yoza boshlagan daraxt shoxlarini sindirib olishadi. Tog' bag'ridan sharqiarob oqib tushayotgan daryo suviga turli chiqindilarni uloqtirishlari ham kishini ranjitetadi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda noyob tur sifatida «Qizil kitob» kiritilgan, tog' ko'rgi sanalmish lolalarini vaqtinchalik ko'ngilxushlik uchun uzib olishadi. Bunday muammolarga qarshi kurashilmasa, albatta, tabiat yangchli holga kelib qoladi.

Tog', adirlarimiz chiqindixonaga aylanmasligi uchun u yerlarda bir qancha chiqindi solish uchun idishlar o'nataish lozim. Dam oluvchilar tashrif buyuradigan tog'larda maxsus qo'riqchi guruhlar tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Ular sayohatchilar orasida tushuntirish ishlarni olib borishsa, ularni nazorat qilib turishsa, daraxtlarning

shoxlari sinmas, lolalar behudaga uzilmas edi.

Mahallalarda ham «Toza hududi», «Toza atrof dilga nur» kabi tadbirlar tashkil etilsa, ekologik muammolarga qarshi kurashish hammanining burchimiz ekanligini barcha anglab yetishiga ishonaman.

Singlim ikkimiz maktabimizdagи «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi a'zolarimiz. To'garak a'zolari bilan yaqinda maktabimiz bog'ida «Tabiatshunoslar» bog'ini tashkil etdik. Bunday xayrlar ishdan so'ng to'garagimiz a'zolari soni yanada ortdi. Mashg'ulotlarda ustozlarimizdan o'rganan bilmalimizga tayanib, singlim va men uymizda xonaki gullar parvarishini ham yo'iga qo'yidik.

Har bir yosh tabiatga mehr qo'ymas ekan, ekologik muammolarni bartaraf eta olmaymiz. Shuning uchun ham barchamiz birdekkurashmog'imiz lozim.

*Borliqa nazar sol, qanday maftunkor,
Yerga cho'p-niholni qadagin bir bor.
Ayanchli ahvolga kelmasdan avval,
Ona tabiatni asraylik, do'star!*

*Kelinglar, beraylik qo'llarni-qo'liga,
Tog'lar aylanmasin sahro-yu cho'liga.
Mehr ber tabiatga, qara o'ng-so'iga,
Ona tabiatni asraylik, do'star!*

Laylo ESONMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi 5-umumta'l'm maktabining 10-sinf o'quvchisi

bog'chalar, maktablar qad rostlayapti. Davlatimiz rahbari yurtimizdagи hech bir o'g'il-qiz, ulaming ma'naviy-ma'rifiy intellekti e'tibordan chetda qolmasin, deyaptilar. Fan, ta'lim, san'at, adabiyot, madaniyat sohasidagi buyuk allomalarimiz nomi dunyoga tanilgan. Bugun biz jippi bolakaylarimiz kamolotiga alohida e'tibor qarataksak, o'sha buyuklik oqimi mavj urib, yetuk olim-u fuzulolar kamol topishi tayin. Bo'va g'amxo'rlikdan ularning kamoloti osmon qadar yuksaklarga ko'tarilishiga aminman.

Ijonlarga bo'layotgan bunday e'tibor qamol qadar yuksaklarga ko'tarilishiga aminman.

MENDA BIR TAKIF BOR

Go'zal yurtimiz tabiatini, atrof-muhitni asrash har birimizning insoniy burchimiz sanaladi.

Lekin keyingi paytlarda ba'zi insonlarning tabiatga bo'lgan e'tiborsizligi, ekologiya qonun qoidalariga rioya etmasligi natijasida bir qancha jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda. Biz esa bunday hollarning oldini olishga harakat qilmog'imiz lozim.

shoxlari sinmas, lolalar behudaga uzilmas edi.

Mahallalarda ham «Toza hududi», «Toza atrof dilga nur» kabi tadbirlar tashkil etilsa, ekologik muammolarga qarshi kurashish hammanining burchimiz ekanligini barcha anglab yetishiga ishonaman.

Singlim ikkimiz maktabimizdagи «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi a'zolarimiz. To'garak a'zolari bilan yaqinda maktabimiz bog'ida «Tabiatshunoslar» bog'ini tashkil etdik. Bunday xayrlar ishdan so'ng to'garagimiz a'zolari soni yanada ortdi. Mashg'ulotlarda ustozlarimizdan o'rganan bilmalimizga tayanib, singlim va men uymizda xonaki gullar parvarishini ham yo'iga qo'yidik.

Har bir yosh tabiatga mehr qo'ymas ekan, ekologik muammolarni bartaraf eta olmaymiz. Shuning uchun ham barchamiz birdekkurashmog'imiz lozim.

*Borliqa nazar sol, qanday maftunkor,
Yerga cho'p-niholni qadagin bir bor.
Ayanchli ahvolga kelmasdan avval,
Ona tabiatni asraylik, do'star!*

*Kelinglar, beraylik qo'llarni-qo'liga,
Tog'lar aylanmasin sahro-yu cho'liga.
Mehr ber tabiatga, qara o'ng-so'iga,
Ona tabiatni asraylik, do'star!*

Laylo ESONMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Kitob tumanidagi 5-umumta'l'm maktabining 10-sinf o'quvchisi

«ONAJONIM TABIAT» tanloviga



Soyabon, bo'lib senga,
Doim toza saqlaymiz.




San'at
TOHIROV,
Buxoro
viloyati,
G'ijduvon
tumanidagi
15-umumta'l'm
maktabi
o'quvchisi



Tabiatqa imkon
bering!

Mubinaxon AHROROVA, Sirdaryo viloyati,
Mirzaobod tumanidagi 1-umumta'l'm
maktabining 2-sinf o'quvchisi

Suv-kayot manby!



Niliufar
KELDIBEKOVA,
Jizzax shahar
ixtisoslash-

tirilgan san'at

maktabining

5-sinf

o'quvchisi



Mukarram
MIRJALILOVA,
poytaxtimizning
Olmazor
tumanidagi
25-Bolalar
musiqa
va san'at
maktabining
6-sinf
o'quvchisi

Sayyoramizni asrang!



Zahroxon
MUHAMMADJONOVA,
Farg'onha viloyati,
Beshterik tumanidagi
26-umumta'l'm
maktabining 3-
sinf o'quvchisi



Dunyodagi bebafo
ne'mat-

Madina UMAROVA,
poytaxtimizning Olmazor
tumanidagi 25-Bolalar musiqa
va san'at maktabining 2-sinf
o'quvchisi

Onajonim tabiat tanloviga mani hovlimirdagi gul-u rayhonlarni suja
Hovlimiga kirsangiz ko'hamidan yurdagi rumin
Sugimiy bobomiz oining "Soyabon" asos
Qishlogimeda deyarli chiqindixonalar yoz
ruda qishlogimeda Popporn shunday tarifla - Chunki po'choqlar mol-holqa beramiz illoz
halqa oxda saglashta harbabit qilamiz sh
holqa turli kasalliklar tangatuvchi pashshalar
kopayishiga imkon yaratigan bolamiz Bahlojha
longa mosh guruch loviyalar soli geyamiz
koyayib ketsa, narsus joylarga topshiramiz
Qishlogimeda tog' yon bagrida joylashga - tra ta bahoda dostlarimiz bilan oz uymiz at
ni uchun ham bu yurdagi shifobaz sur'afasi obodonlastirishga qaror qilish. Har bin
lari bolgan ucta dam olib maskanidan niz uymiz atrofiga quitar chilid daravutlarini
dam olibchilarining qadamini uzmaydi. Uluva ogladik va yosh nihollar shukr to'bat shishimiz
li boqilrimizni kiritil dil yaxrayerdi.
Sobiatni insonlarga ani shunday be
kalla yu bezagan ham bolmas, deb algab ham
gadrashimiz kerak. Andidan shifobaz
bor shifobardagi osha suvidan lib
dir. U jamiki boyishlarining poz-ni matnining orasi
yam-yashil archheolar oralab torub to hisoblanadi. Shunay san'at quradigan
yub nafas osak kasal bolmas shannish muaffo bolishiga ham hismisi oz hismamiz g'ishtif
Birinig qishlogda arigdar ogib otayot.
Zahroxon MUHAMMADJONOVA
gan suvalg'ira chiqindilar tashlanmay Far'azona viloyati, Beshterik tumanidagi
Bu sur'atan mevali daraxtlari umumta'l'm maktabining 3-sinf o'quvchisi



O'QUVCHI SO'Z SO'RAYDI

Mashhuraxon XO'JAAHMADXONOVА,
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatining
11-sinf o'quvchisi:

— Qo'nq'iroyning jarangdor sadolari yangradi...
«So'nggi qo'nq'iroy! Negadir bu so'zni eshitganimda,

MENI KUTING, USTOZLAR!

o'zimga sig'may sevinardim. Ammo hozir qalbimdan turfa xil qarama-qarshi o'ylar birin-ketin o'ta boshladi.

Sinfodoshlarimga, ustozlarimga va jonajon maktabimga qarata ovozimni borchcha, «Men sizlarni yaxshi ko'rman», deya hayqirgim keldi, shu tobda. Menga shu kungacha yordam qo'lini cho'zgan, bilmaganlarimni o'rgatib, joiz bo'sha, tanbeh berib, to'g'iyo'lg'a chorlagan ustozlarimning ismlari birma-bir tilimga keldi: sho'r Rustam Mirvohid, jurnalist Osiyo Jaylabova, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muyassar Boqixonova. Bu mo'tabar insonlar menga ijod qilishni, xalqning dardi bilan yashashni o'rgatishdi.

Ayniqsa, «Tong yulduzi» gazetasining tinib-tinchimas ijodkorlari men bilan misoli o'z farzandidek suhbatlashdilar. Yo'l-yo'riq, maslahatlar berdilar. Sizga o'xshagan yosh muxbirlar bizga kerak, deyishganida, juda quvonganman. Va'da beraman, yetuk jurnalist bo'lgach, qadrondon maktabim bag'riga, albatta, borib turaman. Meni kuting, ustozlarim!

Obro'yingni baland tutmoq,
E bolam, o'z qo'lingdadir.

A. OBIDJON

BAYRAM OILADA DAVOM ETSIN!

Anvar OBIDJON,
O'zbekiston xalq
yozuvcisi:

— Yurtimizda turli katta bayram, tantanalar ko'p. Lekin 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni ham mening nazarmida eng tantanavor ayyom. Zero, bolalarsiz oila-ning fayzi, davlatning kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular hayotimizning mazmuni, quvonchidir. Bugungi



kunda mamlakatimizda yosh avlodning ta'llim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Aslida, bolajonlar uchun kitob bayrami kabi turli festival-u tadbirlar juda ko'p o'tkazilmoqda. Lekin har yili alohida nishonlanadigan bolalar bayramini yildan yilga yanada kengroq tantana qilinishini istardim. Shu kuni har bir oilada ham bayram shukuh kezishini, farzandlariga kitoblar sovg'a qilinishini xohlardim. Men ham barcha oilalarini, butun yurtim bolalarini va bolalar ijodkorlarini bu bayram bilan tabriklayman.

MENING MAKTABIM — MENING UYIM

NAVBATDAGI MANZIL: JANUBIY AFRIKA

Olimjon OLIMOV,
Buxoro viloyati,
Qorako'l tumanidagi
1-DIUMning 9-sinf o'quvchisi:



— Turli olimpiadalarga tayyorgarlik, ishtiroklar bilan mazkur o'quv yilining poyoniga yetib qolganini ham sezmay qolibman. Bu yil men 9-sinfni muvaffaqiyatlilik yakunladim, deyishga arzigulik asoslarim bor. Shu yilning fevral oyida bo'lib o'tgan xalqaro «Uchinchi ming yillik/Hamjihatlik formulas» nomli matematika olimpiadasida kumush medal, «Lomonosov» nomli matematika olimpiadasida ham g'alaba qozondim. O'quv yilining so'nggi oyida esa Samarqandda o'tkazilgan saralash bosqichidan o'tib, avgust oyida Janubiy Afrika Respublikasida bo'ladigan xalqaro matematika olimpiadasida qatnashish baxtiga erishdim. Demak, anglanganizday, yozgi ta'tilga ham rejalarim tayyor:

Shu o'rinda yil davomida meni qo'llagan ustozlarim va maktabimiz direktori Temur aka Ro'ziyevga minnatdorchilik bildiraman. Menga ilm ortidan dunyo mamlakatlaridagi bilimdonlar bilan ko'rishish, do'stlashish nasib etayotganidan xursandman.



Ibrohim RIXSIBOYEV,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi

1-umumta'lim maktabining 11-«V» sinf o'quvchisi:

— Men uchun bugungi qo'nq'iroyning o'zgacha jarangi bor. Bu qo'nq'iroy maktab bag'rida kechgan onlarimning guvohidir. O'n bir yil mobaynida ahamiyat berib qaramagan ekanman, bu ovoz juda yoqimli va ardoqlig ekan.


Birinchi sinfda ko'zimda yosh bilan rahmatli dadamning qo'llaridan tutib borgan edim. O'sha kezlarda o'zlashtirish qobiliyatim ozgina sust bo'lgani uchunumi, meni ustozlar o'quvchilar qabul qilishlari biroz qiyin kechgan. Shu damda katta ishonch bilan qo'limdan tutgan birinchi ustozim Gulmira opa edi. Menga ilk bor egzu fazilatlarni qalbimga singdirgan o'qituvchimidan bir umr minnatdorman. Yuqori sinfiga chiqqan paytlarimda adabiyot fanidan saboq beruvchi ustozim Nilufar opa menga bir gap aytgan edilar:

— Sen ijod olamiga kirib kelayapsan. Bu juda katta mas'uliyat talab qildi. Kelajakda katta adib bo'lib, noming darsliklarga kiradi, — degan edilar. Men ustozimning bu dil so'zlarini oqlashga va kelajakda ustozimdek bo'lishga ahd qildim.

SIYLANGAN O'QUVCHI MAS'ULIYATI

Otabek BAKIROV, Toshkent viloyati,
Angren shahridagi 27-umumta'lim
maktabining 11-sinf o'quvchisi:

— Ustoz! Bu so'zni eshitishim hamonoq ko'z oldimga Hilola va Mukambar Do'sanova singari mehridaryo insonlar keladi. Ayniqsa, bizni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan ustoz Dilafro'z Razzoqovadan bir umr qarzdorman. Xoh ma'naviy, xoh moddig ko'mak bo'lsin, hech qachon rad etmagan shunday insonim borligidan xursandman. Bir maqolamda Dilafro'z opaga «Maktabimiz qalbi» deya baho berganim ham haqiqat. Ijoddagi ilk ustozim farg'onalik jurnalist Klara Hamroqulova bo'lgan. Ayni kunlarda «Dovon jilg'alar» yosh ijodkor to'garagi rahbari Muhabbat Abdugurodirovadan ijod sirlarini puxta o'rgannoqdamagan. Bugungi yutuqlarim sababchilari ham mana shu ikki aziz ustozimdir. Men uchun o'z so'zimni aytguvchi minbar hamda tajriba maktabi vazifasini o'tab kelayotgan «Tong yulduzi» gazetasini ijodkorlarini ham ustozlarim deyman. «Tong yulduzi» xodimlarining maslahatlari, taklif va tabriklari qo'limga qalam olgan ilk yillardan oq qalbimga muhrilangan. Tasavvur qiling-a, oddiy qishloq bolasiga Respublika gazetasini Bosh muharriri telefon qilsa, maktabiga tashrif buyurib, taqdirlasman.



NODIRA va SAYYORA yozib oldi

ORZULARI OSMON BOLAJON



Yoqutxon RAHIMOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Dunyodagi eng baxtli inson tinch-osuda yurtda ulg'ayayotgan farzandlarining kamolini ko'rgan ota-onadir.

Mening shirindan shakar kichkin-toylarim! Bugun sizlarning – qalbi beg'ubor bolajonlarning bayrami. Aslida, faqat birinchi iyun emas, har bir o'tayotgan kuningiz bayramdir. Har biringizning orzularingiz osmon qadar. Ishonamanki, siz ularga, albatta, erishasiz! Chunki yurtimizda nimaiki qilinayotgan ishlari bo'lsa, barchasi sizning porloq kelajagingiz uchun. Har doim shunday yuksak marralar tomon qadam tashlang.



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 259-umumta'l'm maktabining 4-«A» sinf o'quvchilari bilan «Xayr boshlang'ich ta'l'm» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

MAKTABIMIZDAN ZO'R RASSOMLAR CHIQADI

*Maktabimizda fidoyi, jonkuyar ustozlarimiz talaygina.
Ana shunday ustozlardan biri bo'lgan tasviriy san'at fani o'qituvchisi Sunnatilla Usanboyev bizga rasm chizishning sir-u sinoatlarini o'rgatib kelmoqda.*

Tasviriy san'at fani darsiga barchamiz ishtiyoq bilan tabiat manzaralarini, o'zimiz sevgan natyurmort, uy hayvonlari, gullarning rasmini chizamiz. Topishmoqlar yordamida xayolan rasm chizamiz. Sinfoshlarimiz Yulduz Ahmadova va Odina Jo'rabayeva viloyatimizda bo'lib o'tgan rasmlar galereyasida diplom bilan taqdirlandi. Ularning bunday yutuqqa erishishda rasm fani ustozimizning o'ni kattadir.

Kelajakda bizning maktabimizdan ham buyuk rassomlar yetishib chiqadi, deb ishonch bilan aytamiz.



Hulkaroy OMONQULOVA, Zebo OMONQULOVA,
Shahrizoda JO'RAYEVA, Husnida YO'LDSOSHEVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
34-umumta'l'm maktabininig
6-«B» sinf o'quvchilari

«KAMALAK» YULDUZI»MAN

Men kitob o'qishga, san'at va adabiyot namoyandalarining hayoti va ijodini o'rganishga juda qiziqaman. Shuningdek, 3-sinfimdayoq hikoyalari yozishni, 5-sinfdan she'rlar mashq qilishni boshlaganman.



Yaqinda ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Sayyora opa Jumaniyozovning taklifi bilan «Kamalak» yulduzlarix nomli ko'rik-tanlovda qatnashib, «F» yo'nalishi (nazm, nasr, masal)da o'z iqtidorimni namoyon etdim. Maktab, tuman, shahar bosqichlarida birinchilikni egallab, g'oliblikni qo'liga kirtdim.

Hayajonim cheksiz. Ushbu tanlovda ishtirok etishni maslahat berib, menga ishonch bildirgan ustozim Sayyora opadan juda minnadorman.

Servarbek ELBOYEV,
poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 118-umumta'l'm maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi



Ustoz sinfdan tashqari o'qish darsida bizga doimo kitob bilan do'st bo'lishni uqtildilar. Biz kitob va gazeta-jurnallardan o'qiganlarimizni bir-birimizga so'zlab berdik. Buni qarangki, oradan bir zumda to'rt yil o'tib ketidi. O'quv yili tugab boshlang'ich sinfini tamomlar ekanmiz, ustoz bilan xayrashuv onlaridan juda hayajondamiz. Ustoz bizga, «Biz katta bir oilamiz», degan gaplarini unutmagan holda yuqori sinfda ham ahilligimizi yo'qotmay, ularga munosib o'quvchilar bo'lishga va'da beramiz.

Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 244-umumta'l'm maktabining 4-«B» sinf o'quvchilari

Fanlardan imtihonlarga shaylanayotgan aziz o'quvchim! O'quv yili mobaynida fanlarni qay darajada o'zlashtirganingizni sinovdan o'tkazadigan onlar yaqin.

BITIRUVCHILAR SINOVGA SHAY

O'quv yili mobaynida fanlarni qay darajada o'zlashtirganingizni sinovdan o'tkazadigan onlar yaqin. Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 3-umum'lum maktabining biologiya fani o'qituvchilari Po'lat Yusupov, Shahlo Mirzayeva, Asal Tillayeva hamda ingliz tili o'qituvchilari Nasiba Rahimova, Dilbar Rajabboyeva 11-sinf o'quvchilarini imtihonlarga tayyorlashni allaqachon boshlab yuborishgan.

Mirzayeva, Asal Tillayeva hamda ingliz tili o'qituvchilari Nasiba Rahimova, Dilbar Rajabboyeva 11-sinf o'quvchilarini imtihonlarga tayyorlashni allaqachon boshlab yuborishgan.



Men xorijiy tillarni mukammal o'rjanishga astoyil bel bog'laganman. Bu boroda ustozlarimiz bizga yaqin ko'makchilar. Imtihonlarga kelsak, sinfdoshlarim bilan sinovlarga puxta tayyorgarlik ko'rmoqdamiz, – deydi ingliz tili bilimdoni, 11-sinf o'quvchisi Zebo Matchanova.

Ha, aytgandek, ushbu maktab kutubxonasiagi kitoblar soni yaqinda yanada ortdi. Bog'ot tumanidagi «Baxt harakat mevasi» MCHJ raisi Baxtiyor aka Matyoqubov ushbu ta'lif maskaniga turli mavzudagi kitoblar hadya qildi. Bu bebaboh sovg'adan o'qituvchi-yu o'quvchilarning boshi ko'kka yetdi. Endi «Yosh kitobxon» respublika ko'rlik-tanlovida xorazmlik o'quvchilarning qo'li baland kelsa, ajabmas...

Imtihonlarga kelsak, sizga ham bo'lajak sinovlardan muvaffaqiyatlari o'tib, ustozlarinigiz yuzini yorug' qilishingizga tilakdoshmiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Lesson 21

LIKE AND AS

Like – kabi, singari, o'xshagan, o'xshab, xuddi, o'zidek.

Like – predlog hisoblanadi. Like dan keyin «ot», «olmosh» yoki «ing» shaki ishlatalidi. E.g It's raining again. I hate weather like this. (Yana yomg'ir yog'ayapti. Xuddi shunday havoni yomon ko'raman).

«What's that noise? It sounds like a baby crying. («Anavi qanday tovush? Chaqaloq yig'layotganga o'xshaydi).

«As» dan keyin ega va kesimi ishlatalidi. E.g They did as they promised. (Ular va'da berishgandek qilishdi).

Quyidagi misollarda «like» va «as» ni solishtiriring.

You should have done it like this (Sen buni mana bunday qilganingda, yaxshi bo'lardi).

You should have done it as I showed you (Sen buni ko'rsatganimday qilganingda, yaxshi bo'lardi).



Put in like or as

- Your English is very fluent. I wish I could speakyou
- This house is beautiful. It is a palace
- I wish I had a car ... yours
- I think I prefer this room It was before we decorated it.

Mohira RAKHMATOVA,
the teacher of school № 274 Yunusabad district, Tashkent region

INTELLIGENCE QUOTES

A smart man makes a mistake, learns from it, and never makes that mistake again. But a wise man finds a smart man and learns from him how to avoid the mistake altogether.

Roy H. WILLIAMS

27-may 2019

YAXSHI BO'LING!

Umida ABDUAZIMOVA, shoira:

Aziz bolalar, siz gul-u lola-larimiz!

Sizni parvarishlab sevmay, hamma yaxshi narsalarni sizga ilinmay bo'ladiimi?!

Axir siz bizning davom-chilarimiz, ertangi kuni-mizning egalardirisiz!

Qolaversa, «bolam-bolam» demoqlik Odam Ato, Momo Ha-vomizdan merosdir.

Chunki ularning bolalari bo'lgan...



Biz esa kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'ladijan bolalarni mehrimiz bo'lakchadir. Bu dunyoda yurakdan qilingan duo, beminnat qilingan yaxshilik qoladi. Siz bilim oling, davrimizning eng ilg'or, bilimdon insonlari bo'ling. Duo olishni, mehr-oqibat ko'satishni unutmang. Yaxshilik qilishdan charchamang. Yaxshilarga yondashib, yomnaldan adashib yurganlarim, sizning ertangiz bor. Oldinda qiladigan ishlarangiz bisyor! Hammaga yoqimli, hammaga suyumlari bo'lib yashang. Eng kerakligim, beg'ubor yurakligim – bolajonlarim! Yaxshilar safida bo'ling! Yaxshi bo'ling!

BILIM MASKANIGA TUHFA

Maktabning sobiq bitiruvchilari o'ziga xos sovg'a bilan tashrif buyurishdi.

Hozirgi kunda Xatirchi tuman hokimining iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinosari Vohid Avlonov 40 dona badiiy kitob, Navoiy viloyat «Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi sportning o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi» direktori G'ulomiddin Utayev 44 turdag'i kitoblarni sovg'a qilishdi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashhabbusning mazmun-mohiyati haqida tushuncha berib, o'quvchilik davrida erishgan yutuqlari bilan o'rtoqlashdi.

Ahmad EHMURODOV,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 4-umum-ta'lif maktabining chizmachilik fani o'qituvchisi

THE THREE TYPES OF PEOPLE

A teacher shows three toys to a student and asks the student to find out the differences. All the three toys are seemed to be identical in their shape, size and material. After keen observation, the student observes holes in the toys. 1st toy it has holes in the ears. 2nd toy has holes in ear and mouth. 3rd toy has only one hole in one ear.



when the needle was put in, the needle did not come out.

First toy represent those people around you who gives an impression that they are listening to you, all your things and care for you. But they just pretend to do so. After listening, as the needle comes out from the next ear, the things you said to them by counting on them are gone. So be careful while you are speaking to this type of people around you, who does not care for you.

Second toy represent those people who listens to you all your things and gives an impression that they care for you. But as in the toy, the needle comes out from mouth. These people will use your things and the words you tell them against you by telling it to others and bringing out the confidential issues for their own purpose.

Third toy, the needle does not come out from it. These kinds of people will keep the trust you have in them. They are the ones who you can count on.

Moral: Always stay in a company of a people who are loyal and trustworthy. People, who listen to what you tell them, are not always the ones you can count on when you need them the most.

QUVONCHIMMING CHEKI YO'Q



Vali AHMADJON,
bolalar shoiri

(Davomi. Bosh 12-sonda)

Aziz bolajonlar! Bugun yana Ilhomjon va uning robot do'sti Temur haqida ertagimni davom ettiraman.

Esingizdam, Ilhomjon robot do'sti Temurni bog'chasiqa olib borganida, ko'chada hamma ularga hayrat bilan qaragan edi. Ayniqsa, bolalarini bog'chaga olib ketayotgan ota-onalar qo'rilib, yo'l chetiga o'tishgandi.

— Voy, anavi nima? Ayiqmi? Yoki uchar raketami? — deyishdi odamlar.

— Bu — robot. O'zim yasadim! Gapirishni biladi, — debdi Ilhomjon gerdayib.

Bolalar: — Uning joni bormi? Gapirishni bilsa, o'zi yursa, joni bor ekan-a?! — deb robotga zavq bilan tikilishsa:

— Uni shunaqa yuradigan qilib yasadim, — deb javob qilardi Ilhomjon.

Bir ko'cha bola ota-onalari bilan robotni kuzatib, bog'chagacha kelishibdi. «Bog'chaga bormayman», deya xarxasha qiladigan bolalar ham robot ketidan yugurishibdi. Ularni ko'rgan bog'cha opasi Ilhomjni koyibdi.

— Yana uyingdan o'yinchoq olib keldingmi? Sindirib qo'yishsa, yig'laysan. O'zimizda o'yinchoqlar yetarli-ku.

— Opa, bu robot. Uni o'zim yasadim. — Robotmi, mashinami, dadang uyingga olib ketsinlar. Uyingda o'zing o'ynaysan.

— Opa, bu robot gapirishni biladi.

Har gal qo'limga qalam olib, bolajonlar haqida yozmoq istasam, beixtiyor quvonchlarga to'lamani. Ularning tabiiy beg'uborigi, topqirigi, samiriy kulgulari ko'z oldimga kelaveradi. Albatta, barcha bolaligini qo'msaydi, imkon bo'lsa, qaytmoq istaydi. Aytmoqchimanki, bu oltin pallani quvnoq, mazmuni o'tkazinglar.

BOLALAR VA BOBOLAR

(Hazil)

Bolalarning orzusi bir —
Katta bo'lish bobosidek.
Bobolarning orzusi sir,
Kichik bo'lish bobosidek.

Bolalar-ku, topib kamol,
Bir kun bobo bo'lishadi.
Bobolar-chi, surib xayol,
Qachon bola bo'lishadi?..

— Gapirishni biladi? Ichida magnitofon bormi?

— Mana, qarang, Temur, sen gapirishni bilasanmi? — so'rabi Ilhomjon.

— Men ro-bot-man! Me-ning is-mim Te-mur! Men ga-pi-nishni bi-la-man! Me-ni Il-hom-jon ya-sa-gan! Bog'-cha-da bo-la-lar bi-lan o'y-nay-man!

Bog'cha opa «Voy», degancha devorni ushlab

uxlaymiz, — deb chug'urlashishibdi bolalar. Nihoyat, bog'cha opa robotni bolalar bilan qolishiga ruxsat beribdi. Robotni o'yin zalining burchagiga qo'yishibdi. Bolalar unga shirinlik bermoqchi bo'lishgan ekan, Ilhomjon ruxsat bermabd.

— Robot ovqat yeydimi? Men kashamni beraman, maylimi? — debdi bir bola.

Anvar TOJIYEV

ILHOMJON VA UNING ROBOT DO'STI

(Sarguzasht ertak)



qolibdi. Chunki umrida robotni ko'rмаган ekan-da. Birozdan so'ng tilga kirib: — Robotingni bog'chaga olib kelma, bolalar qo'rilib ketishadi. Bu yerdagi narsalarni sindirib qo'yadi, — debdi.

— Opajon, robot biz bilan o'ynasin. To'polon qilmaymiz, vaqtida

— U uxlaydim? Xurral otmaydim?

— deb so'rarmish ikkinchisi.

— Robot o'yinni biladimi? Birga o'yinda tushsak bo'ladimi? — qiziqibdi uchinchisi.

Xullas, kun bo'yi bolalar robot atrofida parvona bo'lishibdi. Hech kim o'yinchoq talashib, janjallashmabdi. Bolalar ovqatlarini vaqtida yeb, vaqtida uxlashibdi. Kechqurun Ilhomjon robotni yetaklab, ko'chadagi odamlarning hayratini oshirib qaytibdi. Bog'chada qilgan ishlarini onasiga aytilib beribdi. Bu haqda esa keyinroq aytilib beramiz.

(Davomi bor)

TINCHLIK YARASHAR SENGA



Ona yurt O'zbekiston, Sen erursan beqiyos. Bog'laring to'kin doim, Hosilga kirar qiyg'os.

Quyoshing sadoqatli, Hech charchashni bilmaydi. Qishin-yozin nur sochib, Sira minnat qilmaydi.

Serquyosh yurtim mening, Tinchlik yarashar senga. Tuprog'ingni sevishni, O'rgatding doim menga.

Munisa JUMAQULOVA, Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi 14-umumta'lum maktabining 11-«A» sinif o'quvchisi

TULKI

Tulkini ayyor deb, O'ylamang aslo sizlar. Uning ayyorligidan, Ibrat izlaysiz bizlar.

Himoya qilish uchun, Bolalarin odamdan. Tulki ayyorlik qilib, O'ylab qo'yarkan qadam.

Saida ZOKIROVA, poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 213-umumta'lum maktabining 4-«A» sinif o'quvchisi



Men qo'ng'iroqman. Quvonchdan darak bera man. Ovozim shunchaki jarang emas. Xushxabar elchisiman. Yangrashimni hamisha kutishadi.

Taraddud ko'rishadi. Sadolarim oddiy bo'lsa-da, mo'jizaga o'xshaydi. Shodlik ulashadi. Hayajonlar ning eshigini ochaman. Qulog'ingizga doimo bir xil eshitilaman. Ammo maktabga ilk chorlovimidan o'zim ham tilroqqa tushaman. Bolalarning saboq daftarlari qatlariqa berkinib olgim keladi. Qalam tutgan — biroz tolqqan qo'lchalar ni meni kutadi. Yo'limgni poylashadi. Sog'intirmayman. Chunki men ham kichkitoylar bilan o'ynagim keladi. Ularga qo'limgni beraman. Shunday qilib, bolajonlar bilan do'st tutinaman. Kunma-kun inoqlashib ketamiz. Endi mening oddiy ovoz emasligimni ular bilishadi. Har jarangim yo'l ochadi. O'quvchilar bilimlari oshib, ilm pillopayalaridan ko'tarilib boradi.

Maktabni mensiz — qo'ng'iroqsiz tasavvur qila olasizmi?! Biz ikkimiz chirmashib ketgan ildizlarmiz, aslida. Bag'rimizdag'i bolalarning yutuqlaridan quvvat olamiz. Zafar quchgan bolalar meni qo'llilarida tutadi. Boshi uzra ko'taradi. Shunda jarangim ohangraboga aylanib qoladi, go'yo... Davradagilar — hammasi a'lachi bo'lgisi, saflarning oldida turgisi keladi. Va ahd qiladi.

Maqsadlari tomon yo'iga chorlayman. Kuch bera man. O'yashga, izlanishga yo'llayman. Qadrdonlarim fikrlarini jamlaydi. Qo'l ushlashib, manzilga odimlaymiz. Mehnat va aql egizakka aylanadi. Kunlar, oylar o'tadi. Zafarlarining qadamlari eshitiladi. Shunda ikkimizning

JARANGIM YO'L OCHADI



jarangimiz bir bo'ladi. Asta ulg'ayamiz! Ammo ovozim o'zgarmaydi... Shunday! Do'stlarim ko'p. Dunyoning eng qariysi — VAQT eng yaqinim. Tinim bilmaydi, yo'lida davom etadi. Uning ortidan ergashaman... O'quvchilar sinovlardan o'tadi. Yozning qadami eshitiladi. Bolalar kuch-quvvat yig'adigan palla yaqinlashadi. Endi «So'nggi qo'ng'iroq» bo'lib jaranglayman. Do'stlarimning quvonchini ko'rib, o'zim ham qarsak chalaman. Mening ham ta'tilga chiqqim keladi. Qulog'imga to'rta tarafdan o'zimning ovozim — qo'ng'iroq quyladi. Yana kimdir bolaligini, maktabini, ustozlarini eslagan shiviri eshitiladi. Qo'llarimni silkitaman: yangi o'quv yiliga gachaga, qadrdonlarim!

Gulchehra SHOMALIKOVA, Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 25-umumta'lum maktabi o'qituvchisi

Bolalik – baxtning quchog'ida quvnab yurgan totli damlarim. Uning shirin onlarini hanuzgacha sog'inib yashayman. Tog' yo'lida so'qmoqlar osha kezib yurgan kunlarim qaytishini istayman. Hayotning betakror darsini bobomdan oiganman.

Tog'ning uzundan uzoq yo'llari ko'nglimni tog' etgan. Ikki kecha-kunduz yayov bosib o'tiladigan u yo'llarda tinib-tinchimas qishloqdoshlarimning nurli dunyosi meni borliqqa mahliyo etgandi. Biz ulovlarimizi oldimizga solib, yuqorilab boraverardik-boraverardik, xuddi ertaklardagidek yo'Ining oxiri ko'rinnasdi. Eshaklarimiz ham yukning og'irligidan bir amallab yuqoriga ko'tarilardi. Eh, men bilgan u bobolarning yurgan yurishi-yu turgan turishi katta dars edi. Ularning so'zlarizi zavqimga zavq, kuchimga kuch qo'shardi. Bugun qani imkoniyati bo'lsa edi... U chollar bilan chordona qurib bir maydon suhabat qursam, degan o'y tinimsiz xayolimdan kechadi. Ammo endi kech, ularni dunyoning to'rt burchini izlab ham topolmayman.

BO'ZBOLAMI YOXUD QULOQCHINLI «QULOQSIZ»?

«Tog'lar ham qariydi» nomli hikoyalar to'plamimda bobom bilan bog'liq bo'lgan tog' yo'lidagi safarimdan pacha keltiraman:

Bobom o'sha-o'sha kamgap. Turib-turib o'zicha xirgoysi qiladi. Xirgoysi qilganda ham so'zlarning salmog'i borini, yurakning tinchini buzadiganini topib aytadi. Yuraverganimdan menin qornim ochqaydi.

– Bobo, ozroq dam olaylik, och qoldim, – desam, u kishi miyig'ida kulib:

– Senga nima balo bo'lgan o'zi, bir zo'r mullani topib, bod o'qitishing kerak, – deydi.

– Och qoldik-da, bobo, – deya xurjunga qo'limni tiqaman. Bobomning dardi yangilanadi, bolaligini eslaydi...

– Bir paytalar tog' yo'li da otam bilan borayapmiz. O'shanda olti-yetti yoshdaman, ochlik yillari. Otama sira yetib yurolmayapman, otam bir buloqning bo'yiga o'tirib oldilar-da, yonidan menga bir burda taxta kunjara chiqarib berdi. Men kunjara ni ishtaha bilan yeyishga tushdim. Bu payt otamning o'zi bir burda arpa nonini suvgaga botirib yeganiga ko'zim tushdi. O'shanda arpa noni ko'zimga dunyodagi eng noyob narsadek ko'rindi. Kunjara yeyishdan to'xtadim. Otamdan ozroq non berishini so'radim. Otamning g'azablanganini o'shanda ko'rganman. U kishi menga qarab:

– Sen yoshsan, hozir toshni yesang ham hazm qilasan. Men-chi, men... Bordi-yu, yo'lda sen ochlikdan yiqilib qolsang, men seni ko'tarib manzilga yetkazib boraman. To'g'rimi? Agar men ochlikdan yiqilib qolsam-chi? Sen meni hech qayoqqa olib borolmaysan. Negaki, sen yosh bolasan, kuching yetmaydi. Unda ikkimiz ham nobud bo'famiz, uqdingmi?..

Man, sizga ochlik bilan kurashib borayotgan



ota-bolaning mahzun holatidan bir lavha. O'sha zamonda yashash qanchalar og'ir kechganiga guvoh bo'ldingiz. Ota farzandini olis tog' yo'lidan omon-eson saqlab o'tishi uchun kurashadi. Sizning xayolingizdan ota-bolaga nisbatan ozroq oshirib yubormadimi, degan o'y kechadi. Ammo, nachora, hayot qozonida gohida mana shunday pishishga to'g'ri keladi...

Bu voqealarni yodga olishimning sababi, bugungi to'kin-sochin davr-u zamonda bolalarimizning qiyinchilik ko'rmay ko'p narsalarga beparvo bo'lib borayotganidir.

U kun horib-tolib avtobusga chiqdim. Yo'lovchilar orasidagi sovuq manzara xayolini ostin-ustin ayladi. Quloqlarida quloqchin taqqan ayrim «quloqsiz» o'gil-qizlarimiz yoshi kattalar oldidagi mas'uliyatini butunlay unutib yuborganga o'xshardi. Aksariyat yoshlari o'tirib, yoshi ulug'lar oyoqda turib borardi.

Bobolarimiz bizga, sen endi bo'zbola bo'lib qolding, deya murojaat qilardi. Bo'zbola degani, kundan kundan kuch-quvvatga to'lib borayotgan, chamasi o'n ikki-o'n yetti yoshlarda bo'lgan o'smirlarga nisbatan qo'llaniladi. Bo'zbola hayotning to'qanshuvaliga qarshilik qila oladigan, emin-erkin fikrlaydigan o'spirinlarga nisbatan qo'llaniladigan so'zdir. Men negadir o'shanday bolalar o'rniда o'zini tutishni bilmaydigan axloqi ham haminqadar bo'lgan bez bolalar ko'payib borayotganidan tashvishlandim.

Ularning ko'p narsaga aqli yetsa-da, yuzingga bezrayibgina qarab o'tirishadi. Nigohingning otashiga dosh berolmasa, beixtiyor telefonini titkilashga tushadi.

Aziz o'quvchi! Yuqoridaq voqealardan to'g'ri xulosa chiqarib, hamisha bo'zbola qolishni unutmang!

Hayot maktabidan ibrat ol!

BAYRAMINGIZ BILAN, KICHKINTOYLARIM!

Har yili nishonlanajak Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni kichkintoylar bilan bir qatorda meni ham juda hayajonlantiradi.

Men shunday quvonchli kunda ular uchun bayram tadbirlarini tashkillashtirish bilan birga ularni bolalar gazetasi orqali qutlashni rejaladim. Tarbiyalanuvchilarim yangidan yangi voqe-a-hodisalarini o'rganishga juda qiziqishadi. Turli musobaqlarda epchilliklarini ko'rsatishga harakat qilishadi. Men esa ularni ota-bobolarini tanigan avlod qilib tarbiyalash maqsadida bir safar Xotira maydoniga olib borsam, keyingi safar tabiat qo'yniga olib chiqaman. Yaqindagina tumanimizdagagi maktabgacha ta'lim muassasalarini tarbiyalanuvchilar o'ttasida o'tkazilgan sport musobaqasiga bordik. Shartlar davomida bolajonlarimining zukko, chaqqonliklarini kuzatib qovondim. O'z mahoratlarni ko'rsatgan kichik sportchilarimni «Balli», deya olqishladim. Endi esa ularni ta'lim maskanimizda tayyorlab qo'yilgan ajoyib bayram dasturi kutmoqda. Fursatdan foydalanih, «Bayramingiz bilan mening quvnoq, ko'zlarini porloq bolajonlarim», deya ularni bag'rimga bosgim keldi.



Muhabbat DEHQONOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanida-
gi 11-maktabgacha ta'lim muas-
sasasi tarbiyachisi

SPORTSEVARLAR SAFI KENGAYDI

Men o'quvchilarimga ta'lim berishdan tashqari ularni sportga qiziqitirishga harakat qilaman.

1-«F» sinifimizda shaxmat to'garigiga qatnashib, qisqa vaqt ichida bir qancha yutuqlarga erishgan o'quvchim Abduvohid Urolov bilan o'zim ham tez-tez shaxmat o'ynab turaman. Sinfda musobaqalar uyushtiraman. Matematika fanini a'lo o'zlashtiradigan Abduvohid uch-to'rt yurishdayoq raqibini mot qiladi. U o'smirlar o'ttasida o'tkaziladigan turli musobaqlarda g'oliblikni qo'nga kiritayotgani bois barcha sindoshlari unga havas qilishadi.

Yana bir o'quvchim Malohat Xu-doyberdiyeva esa tumanimizdagagi bolalar va o'smirlar sport maktabining badiiy gimnastika to'garagiga qatnashadi.

Bu o'quvchim ham qator yutuqlarni qo'lg'a kiritib kelmoqda. Bugungi kunda sinifimda sportsevar bolajonlarning safi yanada kengayib borayotganidan juda xursandman.

AXTAMQULI

Tamara AHMEDOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanida-
gi 300-DIUM o'qituvchisi

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Quyida ta'riflari
bayon etilgan nomlar
shakldagi «Xon» so'zi
bilan boshlanadi.

1. Xorazm viloyati tumani. 2. Xamirli tansiq taom. 3. Yaponiya avtomobili markasi. 4. Uyda tayyorlangan narsha, boqilgan jonivor. 5. Amudaryo vohasidagi qo'rixonalarda yashovchi kamyoj jonivor, Buxoro bug'usi. 6. Yaponiya tarkibidagi eng katta orol. 7. Ashula ijro etuvchi san'atkor. 8. Masjid binosi qismi. 9. Solomon orollari davlati poytaxti. 10. Andijon viloyatidagi shahar. 11. Tanasi yarimshar shaklidagi, ustki qismida xollari bor yarqiroq tusli hasharot. 12. Oila a'zolari yashab turgan xo'jalik. 13. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarga zamondosh bo'lib hamkorlikda faoliyat olib borgan tarixchi. 14. Sakkiz tepkili, a'lo navli milliy ipak mato. 15. Hozirgi Forish tumani yaqinidagi X asrga mansub qadimiy suv ombori. 16. Ozarbayjon Respublikasi tarkibidagi Tog'li Qorabog' markazi hisoblanuvchi shahar. 17. Ro'zg'or buyumi. 18. Qirg'iziston hududida joyalashgan Markaziy Tyan-Shan tog'laridagi cho'qqi. 19. Yosh tomoshabinlar teatrda uzoq yillarda faoliyat olib borgan ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti. 20. Toshkent shahridan janubda, Chirchiq daryosining o'ng sohilida joyalashgan qadimiy shahar xarobasi.

Topshiriq: shaklning o'ng tomonidagi raqamlar jutfini (birinchisi – so'z, ikkinchisi – harf tartibini anglatadi) javoblardagi harflar bilan almash-tirish orqali topshiriqni hal eting. Bunda ulardan qatorlar va bo'yiga o'qish orqali «xon» so'zi bilan tugallangan to'rtta o'zbek xalq dostonlarining nomini biliib olishga muvaffaq bo'lasisiz.

Tuzuvchi:
Foziljon ORIPOV

1	Xon			**	17/6	12/6	5/6	**	2/5
2	Xon			**	3/4	20/4	13/8	**	6/6
3	Xon			*	9/1	10/4	18/6	**	9/6
4	Xon				****	**	**		20/6
5	Xon				****	8/7		**	3/4
6	Xon			**	**	1/5		**	19/1
7	Xon				**	6/4		**	10/4
8	Xon				**	4/4		**	12/7
9	Xon				**	12/5		**	**
10	Xon				**	13/1		**	11/6
11	Xon				**	8/4		**	16/5
12	Xon				**	18/6		**	19/11
13	Xon							**	15/5
14	Xon					****			18/8
15	Xon					****			7/1
16	Xon					****			10/6
17	Xon					****			18/6
18	Xon							**	**
19	Xon								
20	Xon								

Pazanda qizga!



Aziz kichik bekalar!

Ro'za ayyomi
bo'lgani uchun
oilangizdagilarga
to'yimli taom
pishirib berib,
ularning ko'nglini
olishni istaysizmi?
Bugun sizlarning
taomnomangiz yana
bir yangisi bilan boyiydi.
Agar tayyor bo'sangiz,
unda, boshladik.

Taom uchun bizga: 1 kilogramm tovuq filesi, 5 dona kartoshka, 3 dona pomidor, 200 ml sut, 2 dona piyoz, 2 dona tuxum, 200 gramm qattiq pishloq, 3 bo'lak sarimsoqpiyoz, 3 oshqoshiq sметана, 4 oshqoshiq o'simlik moyi, pishiriq qog'oz (folga), tuz, murch, ko'katlarni ta'bga ko'ra solasiz.

TOVUQ GO'SHTIDAN MAZALI TAOM



Tayyorlanishi: tovuq go'shtini o'tacha kattalikda to'g'rab, tuz, murch qo'shib, sutga bo'ktiramiz va 1 soat muzlatgichga qo'yamiz. Kartoshkani somoncha shaklida to'g'rab, tuzli suvgaga solib qo'yamiz. Piyoz, ko'katlarni o'tacha kattalikda to'g'ramiz. Endi folga qog'ozini taxlab, uni dumaloq shaklga keltiramiz va unga to'g'ralgan masalliqlarni hamda muzlatgichdagi tovuq go'shtini solamiz. Uning ustiga to'g'ralgan pomidorlarni, so'ngra eng ustiga qirg'ichdan o'tkazilgan pishloq va sarimsoqpiyozni solamiz. Ana endi uni 180 dajrali haroratda qizdirilgan gaz pechiga 40 daqiqaga qo'yamiz.

Tayyor taomni likopchalarga solib, bodring va pomidortar bilan bezatamiz.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

27-may 2019

8

**Tong
yulduzi**

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
otgan.

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU bosma-xonasida chop ettili.

Gazetaning poligrafik jihatidan sifatlari chop ettilishiga bosmaxona mas'ul.

Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy, Index: 10001.

Obuna indeksi: 198.

www.tongyulduzi.uz

e-mail: tongyulduzi1929@mail.uz

telegram: t.me/tongyulduz

Adadi – 14139

Buyurtma – V 3445

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi
uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilat javobiga.

Shakli A-3, 2 bosma taboq.

Bahosi kefilshigan narxda.

Gazeta haftaning dushanba kuni
chop ettili.

Topshiriq vaqt – 18:00

Topshirildi – 18:00

Tel/faks: (99871) 244-63-08